

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 1227,7 mln.AQSH dollarini yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104,0 foizni, shu jumladan, eksport 310,2 mln.AQSH dollarini, o‘tgan yilga nisbatan 99,4 foizni, import 917,5 mln.AQSH dollarini, o‘tgan yilga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosи minus -607,3 mln. AQSH dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus -421,7 mln.AQSH dollarni va boshqa davlatlar bilan minus -185,6 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		2021 yil yanvar-dekabrga nisbatan, foizda
	2021 yil	2022 yil	
Tashqi savdo aylanmasi	1180,9	1227,7	104,0
MDH mamlakatlari	631,7	745,7	118,0
boshqa xorij mamlakatlari	549,2	482,0	87,8
Eksport	312,1	310,2	99,4
MDH mamlakatlari	92,8	162,0	174,6
boshqa xorij mamlakatlari	219,3	148,2	67,6
Import	868,8	917,5	105,6
MDH mamlakatlari	538,9	583,7	108,3
boshqa xorij mamlakatlari	329,9	333,8	101,2
Saldo	-556,7	-607,3	x
MDH mamlakatlari	-446,1	-421,7	x
boshqa xorij mamlakatlari	-110,6	-185,6	x

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab – quvvatlash, import o‘rmini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi



Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (66,7 foiz), Yevropa (32,6 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 99,3 foizni tashkil etmoqda.

Buxoro viloyatining 2022 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 60,7 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi qolgan, 39,3 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2021 yilda mos ravishda 53,5 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 46,5 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2022 yil yanvar-dekabr oylariga 745,7 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,0 foizga ko‘payish kuzatilgan. Shundan eksport 74,6 foizga ko‘paydi va import 8,3 foizga ko‘paygan.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Afg‘oniston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 65,7 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Qozog‘iston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 83,7 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Turkiya va Xitoy davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 74,8 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Eron, Turkiya, Xitoy, Germaniya, Afg‘oniston davlatlarining ulushi 31,2 foizni tashkil qildi.

**Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar
(2022 yil yanvar–dekabr)**

(mln. AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</i>
Turkmaniston	9,3	214,2	18,2
Rossiya	78,2	259,4	27,5
Xitoy Xalq Respublikasi	13,1	137,2	12,2
Qozog‘iston	24,5	89,5	9,3
Turkiya	25,9	67,2	7,6
Eron Islom Respublikasi	13,6	37,7	4,2
Afg‘oniston	61,9	0,3	5,1
Germaniya	2,9	23,4	2,1
Qirg‘iziston	32,0	3,3	2,9
Tojikiston	9,6	4,5	1,1
Litva	1,8	10,9	1,0
Polsha	3,2	5,9	0,7
Niderlandiya	0,1	8,1	0,7

Viloyatning 2022 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (27,5 foiz), Turkmaniston (18,2 foiz), Xitoy (12,2 foiz), Qozog‘iston (9,3 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (67,2 foiz)ni tashkil qiladi.

MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>		<i>Import</i>	
	<i>yanvar-dekabr</i>		<i>yanvar-dekabr</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
Jami	92778,0	162001,4	538903,2	583695,7

shu jumladan:

Ozarbayjon	1032,5	2509,9	5735,0	2509,0
Armaniston	314,3	17,7	-	-
Belorisiya	565,2	719,5	5405,8	7647,7
Qozog‘iston	7466,6	24474,4	34006,4	89486,1
Qirg‘iziston	7004,4	32018,3	1126,0	3299,9
Moldova	58,5	338,8	145,3	-
Rossiya	59193,8	78245,5	278117,5	259437,9
Tojikiston	8292,7	9611,6	5163,4	4482,8
Turkmaniston	6361,4	9346,3	202895,4	214192,5
Ukraina	2488,7	4719,3	6308,4	2639,9

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sishi kuzatilmoqda. Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 marta va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 3,1 martaga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 50,4 foizni mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar va 22,7 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida eksport-import tarkibi


	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabrga nisbatan, foizda</i>
Eksport tarkibi	312,1	310,2	99,4
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,6	37,0	129,5
Ichimliklar va tamaki	1,8	2,9	161,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	126,9	22,8	18,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	22,4	70,4	313,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,2	9,2	427,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	106,8	133,7	125,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	0,4	0,1	13,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,1	15,5	503,4
Xizmatlar	20,0	17,5	87,5

	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabrga nisbatan, foizda</i>
Import tarkibi	868,8	917,5	105,6
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	31,7	26,8	84,6
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,5	86,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	21,9	31,9	145,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	338,9	462,9	136,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,4	1,0	69,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	62,0	92,3	148,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	165,2	72,3	43,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	216,9	208,0	95,9
Turli xil tayyor buyumlar	28,8	21,7	75,3
Xizmatlar	1,5	0,4	23,4

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 60,7 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 118,0 foizni tashkil qiladi.


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022 yil yanvar- dekabr oylarida 39,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 46,5 foizga etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,2 foizga kamaydi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(2022 yil; o'tgan yilga nisbatan, foiz)



2022 yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi 17,5 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 5,6 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,5 foizga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekomunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2022 yil yanvar-dekabr oylarida jami 68,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 28,6 mln.AQSH dollariga eksport qilindi (77,6 foiz) tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2022 yil yanvar-dekabr oylarida 49,4 ming tonna sabzovotlar 17,2 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 18,6 ming tonna meva va rezavorlar 11,4 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o’tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 mln.AQSH dollariga kamaygan.

Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 28,6 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,6 foizga o'sdi).

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi yanvar-dekabr oylari (ming t.)



Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2021 yil yanvar-dekabr			2022 yil yanvar- dekabr		
	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz
Qozog'iston	9,9	3,4	21,1	17,2	9,8	61,0
Xitoy	5,2	4,4	27,3	0,7	0,6	2,1
Rossiya	9,7	5,5	34,2	5,4	3,1	19,2
Afg'oniston	0,7	0,7	4,3	0,3	0,2	0,7
Boshqa davlatlar	2,6	2,1	13,1	4,6	2,4	17,0

2022 yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi 917,5 mln.AQSH dollariga (o'sish sur'ati 105,6 foiz) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (50,4 foiz) va Mashinalar va transport asbob-uskunalar (22,7 foiz) guruhlari hisobiga to'g'ri keladi.

Import tarkibi
(2022 yil yanvar-dekabr)

	<i>Mln.AQSH doll.</i>	<i>2021 yil yanvar– dekabrga nisbatan, foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	917,5	105,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26,8	84,6	2,9
Ichimliklar va tamaki	0,5	86,3	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	31,9	145,6	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	462,9	136,6	50,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,0	69,2	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	92,3	148,7	10,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	72,3	43,7	7,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	208,0	95,9	22,7
Turli xil tayyor buyumlar	21,7	75,3	2,4
Xizmatlar	0,4	23,4	-

2022 yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan import tarkibi, (foizda)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar


**MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi
(2022 yil yanvar-dekabr)**

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	333,8	100,0	583,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,1	1,2	22,7	3,9

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,5	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	3,7	1,1	28,1	4,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	8,3	2,5	454,5	77,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	-	1,0	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	61,4	18,4	30,8	5,3
Sanoat tovarlar	37,7	11,3	34,6	5,9
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	198,1	59,3	9,9	1,7
Turli xil tayyor buyumlar	20,1	6,1	1,5	0,2
Xizmatlar	0,4	0,1	0,1	-

2022 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizga 70 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog‘iston va Eron hamkor davlatlaridan jami import hajmi 828,8 mln.AQSH.dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 90,7 foizni tashkil qiladi.

Mashina va uskunalar importi dinamikasi
(yanvar-dekabr oylari; mln.AQSH dollarri)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning o‘zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o‘z aksini topadi.

Tashqi savdo aylanmasining qit’alar bo‘yicha tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)

